V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo‘yicha 2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami 23 152 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 3 100 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Urganch shahrida 4 253 tani yoki jamiga nisbatan 18,3 % ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar – iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (44,7 foizi), sanoat tarmog‘ida (17,0 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,9 foiz), tashish va saqlash xizmatlarda (6,2 foiz) tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 14,0 birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022- yil 1- iyul holatiga nisbatan 0,9 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko‘rsatkichi Urganch shahrida 28,2 birlik, Xiva shahrida 19,2 birlik, Yangibozor tumanida 12,6 birlik, Urganch tumanida 12,1 birlik, Yangiariq tumanida 11,7 birlikka yetdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Shahar va tumanlar nomi	*2023- yil 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan*	*2023- yil yanvar - iyun*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo'yicha:	**29 984**	**3 100**	**703**
shaharlar:			
Urganch	5590	374	126
Xiva	2465	183	32
tumanlar:			
Bog'ot	2005	260	51
Gurlan	2069	251	46
Qo'shko'pir	2424	288	56
Urganch	3369	302	68
Hazorasp	1784	221	42
Tuproqqal'a	725	86	16
Xonqa	2195	166	28
Xiva	2225	182	39
Shovot	1922	365	67
Yangiariq	1748	259	69
Yangibozor	1463	163	63

2023-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 3100 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 374 ta, Xiva shahrida 183 ta, Bog'ot tumanida 260 ta, Gurlan tumanida 251 ta, Qo'shko'pir tumanida 288 ta, Urganch tumanida 302 ta, Hazorasp tumanida 221 ta, Tuproqqal'a tumanida 86 ta, Xonqa tumanida 166 ta, Xiva tumanida 182 ta, Shovot tumanida 365 ta, Yangiariq tumanida 259 ta va Yangibozor tumanida 163 tani tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 68,3 foizi (2022- yil yanvar-iyunda 68,9 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2023- yilning yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1842,1 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 19,1 foizi) tashkil qildi;

- 9991,9 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 106,3 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 99,7 foizi) tashkil qildi;

- 1793,7 mlrd.so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 45,4 foizi) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 82,0 foizni tashkil qildi;

- 2230 ,3 mlrd.so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,9 foizi) bajarildi va 2022- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 101,1 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,7 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 101,9 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,2 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 93,5 foizi yoki 4827,1 mlrd. so‘mi (o‘sish 104,2 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 59,9 foizi yoki 3521,7 mlrd. so‘mi (o‘sish 104,5 foiz) shakllantirildi;

- 99,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 60,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 106,6 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 36,4 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

(2023- yilning yanvar- iyunida)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	*Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida*
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	9991,9	99,7
Sanoat	1842,1	19,1
Qurilish	2230 ,3	89,9
Chakana savdo	4827,1	93,5
Yuk tashish, *mln tn.*	17,3	96,0

	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	*Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida*
Yo‘lovchi tashish, *mln.kishi*	202,7	94,5
Eksport, *mln. AQSh doll.*	99,1	60,9
Import, *mln. AQSh doll.*	106,6	36,4

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da